

OMMAVIY OFERTA
MARKETING FAOLIYATI
(KEYINGI O‘RINLARDA — «QOIDALAR»)

MARKETING FAOLIYATI — OOO “MYTAXI OPS” va OOO «OKORI MEDIA GROUP» tomonidan o‘tkaziladi (keyingi o‘rinlarda — «Aksiya»). Aksiya noaniq doiradagi shaxslar o‘rtasida quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi: mijozlar sodiqligini oshirish, **foydalanuvchilar uchun MYTAXI xizmati mobil ilovasida (keyingi o‘rinlarda — «MYTAXI MPS») bog‘langan Mastercard to‘lov tizimi (keyingi o‘rinlarda — «Mastercard PS») kartalari yordamida sayohatlar uchun to‘lov qilishda qulay shart-sharoitlar (chegirmalar) yaratish.** Aksiya lotereya, qimor o‘yini, tanlov yoki xavf-xatarga asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi va amaldagi qonunchilikka muvofiq o‘tkaziladi.

2. AKSIYA TASHKILOTCHISI HAQIDA MA’LUMOT

2.1. Aksiya Tashkilotchisi (keyingi o‘rinlarda — «Tashkilotchi»): «MYTAXI OPS» MChJ, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxs, STIR: 304280837, manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Urikzor ko‘chasi 7A, pochta indeksi: 100100.

3. AKSIYA O‘TKAZILISH MUDDATI

3.1. Aksiya o‘tkazilish muddati: 2026-yil 8-iyuldan 2026-yil 31-dekabrgacha (shu kun ham kiritilgan holda) (keyingi o‘rinlarda — «Aksiya muddati» yoki «Aksiya davri»).

3.2. Ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan barcha muddatlar O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh. vaqti bo‘yicha hisoblanadi.

4. HUDUD VA XABARDOR QILISH TARTIBI

4.1. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida, faqat Toshkent shahri doirasida o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining boshqa barcha hududlarida Aksiya MYTAXI.

4.2. Ishtirokchilarni Aksiyada ishtirok etish tartibi, Aksiya shartlari (shu jumladan ularning o‘zgartirilishi, to‘ldirilishi) hamda Aksiya qoidalari to‘g‘risida xabardor qilish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- 1) Tashkilotchining rasmiy media-manbalarida;
- 2) Tashkilotchining rasmiy veb-saytida: company.mytaxi.uz;
- 3) Tashkilotchi tanlovi bo‘yicha boshqa usullarda;
- 4) Aksiya bo‘yicha savollar uchun elektron pochta: info@mytaxi.uz
milaanohina696@gmail.com

4.3. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiya shartlarini o‘zgartirish va/yoki to‘ldirish, uni o‘tkazishni muddatidan oldin to‘xtatish, Aksiya haqida qo‘shimcha ma’lumot e’lon qilish huquqiga ega. Aksiya va uning shartlari bo‘yicha ma’lumotni o‘zgartirish va/yoki to‘ldirish, ular Tashkilotchi tomonidan tasdiqlangan va Tashkilotchining media-manbalarida e’lon qilingan taqdirda mumkin.

4.5. Tashkilotchi ushbu Qoidalarda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar hamda nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan hollardan tashqari, Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqaga kirishmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5. AKSIYA MAHSULOTI

5.1. Aksiya bo'yicha chegirmalar MYTAXI MPS orqali O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilgan, quyida sanab o'tilgan Mastercard PS kartalariga nisbatan taqdim etiladi:

- **WORLD ELITE MASTERCARD va WORLD MASTERCARD BLACK EDITION — sayohat summasining 15% .**
- **MASTERCARD STANDARD, GOLD MASTERCARD, PLATINUM MASTERCARD, WORLD MASTERCARD — 10% .**

5.2. Aksiya bo'yicha chegirmalar faqat MYTAXI MPS'da quyidagi tariflar bo'yicha sayohatlar uchun to'lov qilishda amal qiladi: **Iqtisod, Komfort, Komfort Pro, Eko, Premium, Ultra, Junior Pro, Bazaviy.**

5.3. Tashkilotchi Aksiyani o'tkazish davomida ajratiladigan chegirmalar foizini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.4. Karta egalariga: **WORLD ELITE MASTERCARD va WORLD MASTERCARD BLACK EDITION** — Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportdan va aeroportga har bir sayohat uchun 1 000 so'm narxda 10 tagacha sayohat qilish imkoniyati taqdim etiladi.

6. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

6.1. Aksiya Ishtirokchilari (bu yerda, yuqorida va keyingi o'rinlarda birgalikda — «Ishtirokchilar», alohida — «Ishtirokchi») O'zbekiston Respublikasining muomalaga layoqatli jismoniy shaxslari, fuqarolari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi, 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan, MYTAXI MPS'da ro'yxatdan o'tgan va 5.1-bandda ko'rsatilgan amaldagi/faol kartalar egasi bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq Aksiyada ishtirok etish uchun cheklovlarga ega bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin.

7. AKSIYANING MUKOFOT JAMG'ARMASI

7.1. Aksiyaning mukofot jamg'armasi OOO «OKORI MEDIA GROUP» tomonidan ajratilgan pul mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

7.2. Ishtirokchilar MYTAXI MPS'ga 5.1-bandda ko'rsatilgan kartalar bog'langan holda, 5.2-bandda ko'rsatilgan tariflar bo'yicha cheksiz miqdorda sayohatlar uchun chegirmalardan (5.1-bandda ko'rsatilgan) foydalanishlari mumkin.

8. CHEGIRMA OLISH SHARTLARI VA TARTIBI

8.1. Aksiyada sayohatga chegirma olish uchun Ishtirokchi ushbu Qoidalarining 3-bo'limida ko'rsatilgan Aksiya o'tkazilish muddati ichida quyidagi harakatlar ketma-ketligini bajarishi zarur:

- Aksiya o'tkaziladigan Hududda ushbu Qoidalarining 5.1-bandida ko'rsatilgan Aksiya mahsulotini sotib olish;
- MYTAXI AppStore / PlayMarket (MyTaxi — taksi va yetkazib berish) ilovasini AppStore / PlayMarket'dan yuklab olish;
- Ushbu Qoidalarining 3.1-bandida ko'rsatilgan davrda MYTAXI MPS'da taksi buyurtma qilish.

8.2. Ishtirokchi tomonidan MYTAXI MPS'da Aksiya mahsulotidan foydalangan holda bajariladigan buyurtmalar soni 5.4-bandda ko'rsatilgan shartlardan tashqari cheklanmagan.

11. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

11.1.1. Ishtirokchilarning Aksiya Qoidali bilan tanishmaganligi uchun;

11.1.2. Ishtirokchilardan xatlar, qo'ng'iroqlar va/yoki elektron xabarlarining, shu jumladan pochta xizmati, aloqa tashkilotlari aybi bilan, texnik muammolar va/yoki Internet tarmog'idagi firibgarlik va/yoki Aksiya o'tkazishda foydalaniladigan aloqa kanallari natijasida olinmaganligi uchun.

11.1.3. Ishtirokchi tomonidagi texnik muammolar tufayli Ishtirokchining Aksiya bo'yicha sayohatga chegirma oolmaganligi uchun.

11.1.4. Aksiya Tashkilotchisining aybisiz yuzaga kelgan uyali aloqa operatorlari, Internet-provayderlarning har qanday texnik uzilishlari, nosozliklari, profilaktika ishlari va shu kabilar uchun.

11.1.5. Ishtirokchi tomonidan Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq qilingan har qanday xarajatlar va (yoki) zararlar uchun.

11.1.6. Yengib bo'lmas kuch holatlari (fors-major) yuzaga kelgan taqdirda, shu jumladan favqulodda holat rejimi va/yoki sanitariya-epidemiologik cheklovlar/taqiqlar joriy etilishi holatida.

11.2. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq qilingan barcha va har qanday xarajatlarni (shu jumladan, cheklovsiz, mobil aloqa operatorlari xizmatlaridan, Internet tarmog'idan foydalanish, Aksiya haqida har qanday ma'lumot olish, Aksiya mahsulotini sotib olish va h.k. bilan bog'liq xarajatlarni) mustaqil ravishda to'laydilar. Ushbu xarajatlar uchun Tashkilotchi javobgar emas.

11.3. Tashkilotchi internet-provayderlar, aloqa operatorlari ishi, pochta, kuryer yoki boshqa xizmatlarning har qanday xatolari uchun javobgar emas, agar ular natijasida pochta va elektron jo'natmalar yetib kelmagan yoki kechikib yetib kelgan, yo'qolgan yoki shikastlangan bo'lsa.

11.4. Tashkilotchi MYTAXI MPS foydalanuvchisi bilan haydovchi o'rtasidagi kutilmagan yoki nizoli vaziyatlar uchun javobgar emas.

11.5. Tashkilotchi o'z xohishiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalar qoidalarini hisobga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish to'g'risidagi hujjatlarni soxtalashtiruvchi yoki soxtalashtirishdan manfaat ko'ruvchi, yoki ushbu Qoidalarini buzgan holda harakat qiluvchi, ushbu Aksiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa shaxsni bezovta qilish, haqorat qilish, tahdid solish yoki tashvishga solish niyatida noto'g'ri harakatlar amalga oshiruvchi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini buzuvchi har qanday shaxsga ushbu Aksiyada keyingi ishtirok etishni taqiqlashi mumkin.

11.6. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiyadagi firibgarlikka to'sqinlik qiluvchi qo'shimcha texnik cheklovlar joriy etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Biror Ishtirokchining vijdsiz xatti-harakati har qanday urinishi aniqlangan taqdirda, uning ma'lumotlari MYTAXI MPS'da bloklanishi mumkin, Ishtirokchining o'zi esa Aksiyada keyingi ishtirok etishdan chetlatiladi.

11.7. Tashkilotchi Aksiyada ishtirok etishning vijdonliligini Tashkilotchida mavjud texnik imkoniyatlar asosida hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalar qoidalarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda baholaydi.

11.8. Tashkilotchi tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, har qanday tusdagi harbiy harakatlar, blokadalar, pandemiya bilan bog'liq karantin choralari, Aksiya o'tkaziladigan hududda amal qiluvchi qonunchilikdagi jiddiy o'zgarishlar, Tashkilotchi nazoratiga bo'ysunmaydigan boshqa holatlar kabi fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar emas.

12. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

12.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi aniq va dolzarb (ishonchli) ma'lumotlarni ko'rsatish majburiyatini oladi, shuningdek o'z xohishi va manfaatlari yo'lida harakat qilib, Tashkilotchiga va u vakil qilgan shaxsga Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy

ma'lumotlar va boshqa axborotni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, xususan, 2019-yil 21-iyundagi «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'RQ-547-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunida hamda ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda va hajmda yig'ish, qayta ishlash, shu jumladan transchegaraviy uzatish, foydalanish, saqlashga rozilik beradi.

12.2. Aksiyada ishtirok etish va Aksiya doirasida sayohatga chegirma olish uchun Ishtirokchi Tashkilotchiga ushbu Oferta (Qoidalar) bilan belgilangan axborotni (shu jumladan o'zining shaxsiy ma'lumotlarini) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda taqdim etishi shart.

12.3. Aksiyada ishtirok etish orqali har bir Ishtirokchi shu bilan Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchi taqdim etgan axborotdan, shu jumladan, ammo bu bilan cheklanmagan holda, shaxsiy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan marketing va/yoki har qanday boshqa reklama faoliyati bilan bog'liq holda foydalanishga, xususan, uning ismi, familiyasi, fotosurati, intervyusi yoki u haqidagi boshqa materiallardan reklama/marketing maqsadida bepul foydalanishga, shu jumladan (ism va fotosuratni) OAVda, har qanday bosma, audio va video materiallarda, OAV bilan intervyularda e'lon qilish huquqiga, shuningdek axborot, xabarlar (shu jumladan reklama tusidagi) yuborish va shu kabilar uchun, foydalanish hududi, vaqti va usuli bo'yicha hech qanday cheklovsiz foydalanishga roziligini tasdiqlaydi, va bunday foydalanish Tashkilotchi tomonidan hech qanday tarzda qoplanmaydi.

12.4. Aksiyada ishtirok etish orqali har bir Ishtirokchi kelajakda o'zining mobil telefon raqamiga va/yoki e-mail manziliga Tashkilotchidan va u vakil qilgan shaxsdan SMS-xabarlar, yangiliklar va boshqa reklama-axborot xabarlari (tarqatmalar) olishga amal qilish muddati bo'yicha cheklovsiz rozilik beradi.

13. BOSHQA SHARTLAR

13.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Aksiyani o'tkazishning barcha Qoidalari va Aksiyada ishtirok etish shartlari bilan tanishganligini hamda ularga to'liq va so'zsiz/shartsiz roziligini tasdiqlaydi.

13.2. Aksiyani o'tkazish Qoidalari Aksiyani o'tkazishning butun muddati davomida Tashkilotchi tomonidan o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin. Aksiya Tashkilotchisi istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda Aksiyani o'tkazish shartlari, Qoidalari va muddatlariga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi, shuningdek Tashkilotchi Aksiyani o'tkazishni muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega. Reklama Aksiyasini o'tkazish Qoidalarini o'zgartirish va/yoki to'ldirish, ular Tashkilotchi tomonidan tasdiqlangan va Tashkilotchining media-manbalarida e'lon qilingan taqdirda mumkin.

13.3. Aksiya Tashkilotchisi o'z xohishiga ko'ra, Ishtirokchilarga sabablarni tushuntirmasdan va ular bilan yozishmaga kirishmasdan, Aksiya Ishtirokchilarining har qanday harakatlarini haqiqiy emas deb topish, shuningdek Aksiyada keyingi ishtirok etishni taqiqlash, Tashkilotchida Ishtirokchi ma'lumotlarni soxtalashtirayotgani yoki har qanday ma'lumot soxtalashtirishdan manfaat ko'rayotgani haqida asosli shubhalar yuzaga kelgan har qanday shaxsga sayohatlarga chegirma olishni rad etish huquqiga ega.

13.4. Ushbu Qoidalarni noaniq talqin qilishga yo'l qo'yadigan vaziyat, har qanday nizoli masalalar va/yoki ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan masalalar yuzaga kelgan taqdirda, yakuniy qarorni Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq qabul qiladi.

13.5. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tashkilotchi va Aksiya Ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

13.6. Tomonlarning javobgarlik choralari, shuningdek nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq belgilanadi.

13.7. Ushbu Ommaviy oferta amal qilish muddati — Aksiyanı o‘tkazish muddati tugaguniga qadar.